

## Xalqaro hamkorlik bo'yicha talabalarga batafsil ma'lumot berildi

Telegramdagi TIQXMMIning faol 1000 talabasi iltimosiga binoan Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.Salohiddinov bilan onlayn uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvda talabalar xorijdagi hamkor universitetlar va tashkilotlar, chet elda, xususan Germaniyaga stajirovkaga borish, rivojlangan davlatlardagi nufuzli universitetlarda tahsil olish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan qiziqishdi. Prof. A.Salohiddinov savollarga atroficha va batafsil javob berdi. Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i Sh.Raxmonov tomonidan bugungi kunda e'lon qilingan grant va loyihamar, ularga topshirish, hamkorlikdagi loyihamar xususida ma'lumotlar berildi. Shuningdek, TIQXMMI bilan yo'lga qo'yilgan qo'shma ta'lim dasturlari haqida ham mushohada yuritildi.



Suhbat davomida talabalar uchun rezyume (CV) ni tayyorlash bo'yicha o'quv seminar tashkil qilish bo'yicha kelishib olindi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroficha javob olishdi va samimiy suhbat uchun minnatdorlik bildirildi.

### **Institut matbuot xizmati**